



Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalaridan 3 131,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (91,4 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi ko'payishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 2,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 14,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 8,8 % o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoatning – 36,8 % ga kamayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini tashkil etdi.



Tumanlar miqyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mlrd. soʻmda

Tumanlar miqyosida olib qaralganda, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi boʻyicha asosiy ulush Gʻallaorol, Zomin, Forish hamda Sharof Rashidov tumaniga toʻgʻri keladi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi, tumanlar kesimida, mln. soʻmda	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*%
Zomin tumani	24 054,3	12 471,2	38,7
Sharof Rashidov tumani	13 853,9	9 653,2	52,0
Forish tumani	9 412,8	12 468,9	98,8
Gʻallaorol tumani	7 240,4	24 137,8	248,6
Jizzax shahri	3 693,1	3 075,9	52,7
Baxmal tumani	1 416,8	2 881,5	151,7
Zafarobod tumani	968,3	1 216,6	79,5



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 861,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,4 % ini tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,7 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 4,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 3,9 % (4,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,0 % (22,9 %) va quyi texnologiyalisi - 64,7 % (58,4 %) ni tashkil etdi.

**2019- yil
yanvar-iyul, % da**



**2020- yil
yanvar-iyul, % da**



 yuqori texnologiyali

 o'rta-quyi texnologiyali


 o'rta-yuqori texnologiyali

 quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,8 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,4 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,8 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,9 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,0 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 49,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,6 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatida 38,1 ming tonna bug'doy uni (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 11,3 % ga o'sgan), 24,8 ming tonna paxta tolasi (21,3 %), 2,0 ming tonna paxta tviti (lint) (17,5 %), 40,7 ming tonna paxta chigiti mahsulotlari (21,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	34277,1	38142,0	3864,9
Paxta tolasi, t.	24324,0	24755,4	431,4
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	7288,0	5152,6	-2135,4
Bir qavatli ip, t	12278,0	11941,7	-336,3
Trikotaj polotnolar, t	1638,0	1112,0	-526,0
Paxta linti, t.	2053,0	2023,9	-29,1



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 172,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,2 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,7 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	98 648,1	138 184,9	39 536,8
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	6,2	5,8	-0,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	38 407,1	34 704,5	-3 702,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	11 543,7	17 644,7	6 101,0
Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	24,0	24,7	0,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 311,6	12 618,1	2 306,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 36,6 % ga, oshganlik kuzatildi, shuningdek, kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar – 6,16 % ga hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar -2,1 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 380,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan -10,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 40,5 % dan 29,1 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 36,5 % ni shuningdek Zomin tumani 11,9 % ni, Sharof Rashidov tumani 11,5 % ni, Do'stlik tumani 8,7 % ni, Paxtakor tumani 4,8 % ni hamda, Forish tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati yuqori ko'rsatkich Yangiobod (156, %), Paxtakor (112,6 %), Arnasoy (111,7 %) va Zomin (109,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida past ko'rsatkich Do'stlik tumani 75,2 % ni, Sharof Rashidov tumani 80,7 % ni, Mirzacho'l tumani 86,5 % ni va Zarbdor tumani 87,6 % ni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	1 380,6	100,0	89,3
Jizzax shahar	503,3	36,5	82,6
<i>tumanlar:</i>	0,0		
Arnasoy	43,2	3,1	111,7
Baxmal	44,7	3,2	96,1
G'allaorol	55,3	4,0	96,4
Sharof Rashidov	158,6	11,5	80,7
Do'stlik	120,6	8,7	75,2
Zomin	163,8	11,9	109,7
Zarbdor	49,9	3,6	87,6
Zafarobod	28,7	2,1	95,9
Mirzacho'l	33,9	2,5	86,5
Paxtakor	66,4	4,8	112,6
Forish	65,0	4,7	90,7
Yangiobod	46,9	3,4	156,7

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 26,2 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 18,0 % ni, Zomin tumani 12,7 % ni, Paxtakor tumani 8,1 % ni hamda Zarbdor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri (141,8 %), Paxtakor tumani (112,4 %) hamda Baxmal tumanida (108,4 %) qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng past ko'rsatkich Mirzacho'l tumani 58,3 % ni, Zarbdor tumani 63,9 % ni hamda Sharof Rashidov tumani 72,1 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	470,8	100,0	94,0
Jizzax shahar	123,4	26,2	141,8
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	13,3	2,8	88,7
Baxmal	24,7	5,3	108,4
G'allaorol	17,1	3,6	76,7
Sharof Rashidov	17,7	3,8	72,1
Do'stlik	84,6	18,0	84,0
Zomin	59,8	12,7	76,6
Zarbdor	32,0	6,8	69,3
Zafarobod	18,7	4,0	99,2
Mirzacho'l	9,4	2,0	58,3
Paxtakor	38,3	8,1	112,4
Forish	19,4	4,1	88,9
Yangiobod	12,4	2,6	94,3

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 41,8 % ni shuningdek Sharof Rashidov tumani 15,5 % ni, Zomin tumani 11,4 % ni, Forish tumani 5,0 % ni, G'allaorol tumani 4,2 % ni hamda Do'stlik tumani 4,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yangiobod (205,5 %), Zarbdor (165,9 %), Zomin (145,9 %), Arnasoy (126,3 %), Paxtakor (112,9 %) hamda G'allaorol (108,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Do'stlik tumani 60,4 % ni hamda Sharof Rashidov tumani 15,5 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	909,8	100,0	87,1
Jizzax shahar	379,9	41,8	72,7
<i>tumanlar:</i>	0,0		
Arnasoy	29,9	3,3	126,3
Baxmal	20,0	2,2	84,3
G'allaorol	38,2	4,2	108,8
Sharof Rashidov	140,9	15,4	81,9
Do'stlik	36,1	4,0	60,4
Zomin	104,0	11,4	145,9
Zarbdor	18,0	2,0	165,9
Zafarobod	10,1	1,1	90,3
Mirzacho'l	24,5	2,7	106,1
Paxtakor	28,1	3,1	112,9
Forish	45,7	5,0	91,5
Yangiobod	34,5	3,8	205,5



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 754,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,1 % ni tashkil etdi.



**Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2020- yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Jizzax viloyati	3 131,2	103,0
Jizzax shahar	1 279,0	100,5
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	82,5	105,5
Baxmal	44,5	101,3
G'allaorol	92,1	105,2
Sharof Rashidov	181,2	107,1
Do'stlik	559,6	115,5
Zomin	187,2	104,6
Zarbdor	125,7	100,8
Zafarobod	133,5	119,3
Mirzacho'l	36,0	92,3
Paxtakor	257,3	116,0
Forish	105,6	101,6
Yangiobod	47,0	100,5




Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 119,3 %), Paxtakor (116,0 %), Do'stlik (115,5 %), Sharof Rashidov (107,1 %), Arnasoy (105,5 %) hamda G'allaorol (105,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Do'stlik (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan -24,8 %), Sharof Rashifov (-19,3 %), Mirzacho'l (-13,5 %), Zarbdor (-12,4 %), Forish (-9,3 %) tumanlarida hamda Jizzax (-17,4 %) shahrida sezilarli darajada pasaydi.



Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 40,8 % i), Do'stlik (17,9 %), Paxtakor (8,2 %), Zomin (6,0 %) hamda Sharof Rashidov (5,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirzacho'l (1,1 %) hamda Baxmal (1,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Do'stlik (8 516,9 ming so'm), Paxtakor (3 448,7 ming so'm), Zafarobod (2 669,7 ming so'm) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (7 173,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 254,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 994,1 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida – 2 822,9 ming so'mni, Do'stlik tumanida – 1 836,4 ming so'mni, Yangiobod tumanida – 1 662,9 ming so'mni, Zomin tumanida 997,2 ming so'mni, Amasoy tumanida 940,0 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Jizzax viloyati	2 254,6	994,1
Jizzax shahar	7 173,6	2 822,9
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1 793,1	940,0
Baxmal	283,9	273,3
G'allaorol	534,7	321,1
Sharof Rashidov	817,2	715,2
Do'stlik	8 516,9	1 836,4
Zomin	1 139,3	997,2
Zarbdor	1 455,2	577,9
Zafarobod	2 669,7	574,8
Mirzacho'l	693,0	652,2
Paxtakor	3 448,7	890,7
Forish	1 139,3	701,6
Yangiobod	1 667,6	1 662,9



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 796,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 57,4 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov tumanida (100,0 %), Zomin tumanida (100,0 %), Yangiobod (99,8 %), Mirzacho'l (97,6 %), Forish (94,1 %), G'allaorol (81,0 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Zafarobod (21,6 %), Paxtakor (39,5 %) va Zarbdor (41,0 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (47,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 3 114 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 003 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 32,2 % i) Jizzax shahriga, 652 tasi (20,9 %) Sharof Rashidov tumaniga, 272 tasi (8,7 %) G'allaorol tumaniga, 142 tasi (4,6 %) Forish tumaniga, 131 tasi (4,2 %) Zarbdor tumaniga, 119 tasi (3,8 %) Paxtakor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020- yil yanvar-iyul oyida viloyatda 396 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 88 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,2 %) Jizzax shahrida, 63 tasi (15,9 %) Sharof Rashidov tumanida, 35 tasi (8,8 %) Zarbdor tumanida, 32 tasi (8,1 %) G'allaorol tumanida, 30 tasi (7,6 %) Zomin tumanida, 24 tasi (6,1 %) Forish tumanida hamda 24 tasi (6,1 %) Do'stlik tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (72) 202-51-13